



O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

**Fatxullayev Olimjon
Lutfullayevich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Tyutorlar
faoliyatini muvofiqlashtirish
va talabalar bilan manzilli ishlash bo'limi tyutori
E-mail: ofl_5555@mail.ru*

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekistonda investitsiya faolligini oshirishning zamonaviy tendensiyalari va mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, ularning yillar davomida o'zgarishi, investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalar va kreditlarning o'rni hamda investitsiya jarayonlarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha yo'nalishi ko'rib chiqilgan. Tahlil natijalari O'zbekistonda investitsiya faolligi so'nggi yillarda yuqori sur'atlarda kengayib borayotganini, bunda xorijiy kapital, xususiyy investitsiyalar va davlat tomonidan yaratilayotgan investitsiya sharoitlari muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, investitsiya resurslarini hududlar va tarmoqlar bo'yicha yanada muvozanatli taqsimlash, xususiyy investitsiyalarni rag'batlantirish va investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish dolzarb vazifalar sifatida belgilangan. Tadqiqot yakunida O'zbekistonda investitsiya faolligini yanada oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya faolligi, investitsiya jarayoni, asosiy kapitalga investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar, xususiyy investitsiyalar, investitsiya muhiti, investitsiya siyosati, kapital qo'yilmalar, investitsiya loyihalari, iqtisodiy rivojlanish.

Investitsiya faolligi mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim omillaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi asosiy fondlarni yaratish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida investitsiya faolligining oshishi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, xususiyy sektorning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish hamda yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, investitsiyalar hajmining dinamikasi, moliyalashtirish manbalari va xorijiy kapitalning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini tahlil qilish mamlakatdagi investitsiya faolligining zamonaviy holatini baholash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 210,2 trln so'mdan 2025-yilda 603,6 trln so'mga yetgan [1]. Demak, mazkur davrda investitsiyalar hajmi qariyb 2,9 barobarga oshgan. Ayniqsa, 2023–2025-yillarda investitsiya hajmining sezilarli

kengaygani kuzatiladi: 2023-yilda 356,1 trln so‘m, 2024-yilda 507,5 trln so‘m va 2025-yilda 603,6 trln so‘mlik asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilgan.

1-jadval.

O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi, 2020–2025-yillar

Yil	Investitsiyalar hajmi, trln so‘m	Oldingi yilga nisbatan o‘shish, %
2020	210,2	—
2021	239,6	114,0
2022	266,2	111,1
2023	356,1	133,7
2024	507,5	142,5
2025	603,6	118,9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2020–2025-yillarda investitsiya faolligining umumiy tendensiyasi ijobiy bo‘lgan. Eng yuqori nominal o‘shish 2024-yilda kuzatilib, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bir yil ichida 42,5 foizga oshgan. 2025-yilda esa investitsiyalar hajmi yana 18,9 foizga ko‘paygan. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar 591,1 trln so‘mni tashkil etgani dastlabki hisobotlarda qayd etilgan, keyingi statistik ma’lumotlarda esa yangilangan yillik ko‘rsatkich 603,6 trln so‘m sifatida keltirilgan [1; 2]. Shu sababli mazkur tezida yangilangan SIAT ma’lumotlar bazasidagi 603,6 trln so‘mlik ko‘rsatkich asosiy ma’lumot sifatida qabul qilindi.

Investitsiya faolligining o‘shishida xorijiy investitsiyalar va kreditlarning roli ham sezilarli darajada ortmoqda. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar 2020-yildagi 66,5 trln so‘mdan 2025-yilda 400,8 trln so‘mga yetgan. Natijada ushbu manba hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi olti yil davomida qariyb olti barobar oshgan [3].

2-jadval.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

Yil	Hajmi, trln so‘m	Asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi, %
2020	66,5	31,6
2021	83,2	34,7
2022	98,8	37,1
2023	179,3	50,4
2024	327,6	64,6
2025	400,8	66,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi SIAT ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Mazkur ko‘rsatkichlar O‘zbekiston investitsiya faoliyatida tashqi kapitalning roli sezilarli darajada kuchayganini ko‘rsatadi. Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibidagi ulushi 2020-yildagi 31,6 foizdan 2025-yilda 66,4 foizgacha oshgan. Boshqacha aytganda, 2025-yilda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan har 100 so‘mlik investitsiyaning qariyb 66 so‘mi xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan shakllangan. Bu holat bir tomondan mamlakatning xalqaro investorlar uchun

jozibadorligi ortayotganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan investitsiya jarayonlarida tashqi moliyalashtirish manbalariga bog'liqlik masalasini ham dolzarb qiladi.

2025-yil yakunlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga 422,1 trln so'm, ya'ni 33,5 mlrd AQSh dollari miqdorida mablag' yo'naltirilgani Milliy statistika qo'mitasi tomonidan qayd etilgan [2]. Mazkur mablag'larning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishida ishlab chiqarish sanoati 33,2 foiz bilan yetakchi o'rinni egallagan. Elektr energiyasi va gaz ta'minoti 17,1 foiz, tog'-kon sanoati 11,9 foiz, qishloq xo'jaligi 9,2 foiz, qurilish 6,1 foiz hamda transport va saqlash 5,3 foiz ulushga ega bo'lgan [2].

Bu tarkib investitsiyalarning, avvalo, ishlab chiqarish va infratuzilmaviy salohiyatni kengaytirishga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish sanoatining yuqori ulushi iqtisodiyotda qo'shilgan qiymat yaratish va import o'rini bosuvchi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhimdir. Energetika va tog'-kon tarmoqlaridagi yuqori investitsiya faolligi esa mamlakatning energiya ta'minoti va xomashyo bazasini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj bilan izohlanadi [2].

Investitsiya faolligining o'sishi iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan ham uzviy bog'liq. 2025-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti 7,7 foizga o'sib, yalpi ichki mahsulot hajmi 145 mlrd AQSh dollaridan oshgan. Shu davrda qurilish 14,2 foiz, bozor xizmatlari 14,7 foiz va sanoat ishlab chiqarishi 6,8 foizga o'sgan. Investitsiya oqimlarining ishlab chiqarish, energetika, infratuzilma va logistika yo'nalishlariga jalb qilinishi mazkur tarmoqlarning kengayishiga moliyaviy asos yaratgan [4].

Investitsiya faolligini oshirishda xorijiy kapital bilan bir qatorda ichki moliyalashtirish manbalarining rivojlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Davlat budjeti hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 14,3 trln so'mdan 2025-yilda 25,6 trln so'mgacha oshgan [5]. Biroq jami investitsiyalar hajmining ancha tez sur'atlarda o'sishi davlat budjeti mablag'larining umumiy investitsiya jarayonidagi nisbiy ulushini cheklab, boshqa moliyalashtirish manbalarining ahamiyatini oshirmoqda. Bu holat investitsiya siyosatida davlat mablag'larini xususiy kapital, xorijiy investitsiyalar, bank kreditlari va boshqa moliyaviy instrumentlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, investitsiya faolligining hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha muvozanatli taqsimlanishi ham muhim masala hisoblanadi. Investitsiyalarning yirik sanoat, energetika va infratuzilma loyihalarida jamlanishi qisqa muddatda yuqori iqtisodiy samara berishi mumkin, biroq hududlar o'rtasidagi investitsiya tafovutlarini kamaytirish uchun kichik va o'rta biznes, innovatsion loyihalar hamda xizmatlar sektoriga yo'naltiriladigan investitsiyalarni kengaytirish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya faolligini faqat investitsiyalar umumiy hajmining o'sishi orqali emas, balki ularning hududiy va tarmoq tarkibi, yaratilayotgan yangi ishlab chiqarish quvvatlari, ish o'rinlari va qo'shilgan qiymatga ta'siri orqali baholash maqsadga muvofiq.

Kelgusida O'zbekistonda investitsiya faolligini yanada oshirish uchun investitsiya loyihalarini tanlash va baholash sifatini yaxshilash, xususiy investorlar uchun ma'muriy va moliyaviy to'siqlarni kamaytirish, uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlarini kengaytirish hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarga investitsiyalarni rag'batlantirish muhimdir. Ayniqsa, ishlab chiqarish, transport-logistika, energetika, raqamli infratuzilma va innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan

investitsiyalarning ko'payishi iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi omillarini shakllantirishi mumkin.

Umuman olganda, O'zbekistonda 2020–2025-yillarda investitsiya faolligi sezilarli darajada oshib, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi qariyb 2,9 barobarga, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar esa qariyb olti barobarga ko'paygan. Investitsiya tarkibida xorijiy kapitalning ulushi ortishi mamlakatning xalqaro investitsiya oqimlaridagi ishtiroki kuchayayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, kelgusidagi vazifa investitsiyalar hajmini oshirish bilan cheklanib qolmasdan, ularning iqtisodiy samaradorligini, hududiy muvozanatini va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kuchaytirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Investments in fixed assets (volume). SIAT statistik ma'lumotlar bazasi. – Toshkent, 2026. <https://siat.stat.uz/data/1928/>
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. In 2025, investments in fixed assets reached 591.1 trillion soums. – 26 January 2026.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Volume of investments in fixed assets through foreign direct investment and loans (annual). SIAT. – Toshkent, 2026. <https://siat.stat.uz/data/2633/>
4. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. O'zbekiston iqtisodiyoti 2025-yilda rekord darajadagi o'sishni qayd etdi. – 28 yanvar 2026. <https://invest.gov.uz/uz/post/349>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Volume of investments in fixed capital at the expense of the state budget (annual). SIAT. – Toshkent, 2026. <https://siat.stat.uz/data/2622/>